

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan
2026-yil 1-yarim yillik davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
H I S O B O T**

2026-yil “30” iyun

Navoiy shahri

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda - “NKMK” AJ, Jamiyat*) hamda Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida 2026-yil uchun **9 ta** banddan iborat **“Yo‘l xaritasi”** tasdiqlandi va ijrosi nazoratga olindi.

“NKMK” AJ faoliyatida monopoliyaga qarshi kurashish, uning talablarini buzilishi hamda boshqa salbiy oqibatlar yuzasidan xabar beruvchilar uchun Jamiyatning rasmiy veb-saytida alohida elektron tizim va aloqa kanallari tashkil etilgan.

Shu bilan birga, Jamiyatda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish reglamenti” tasdiqlangan va ushbu reglament asosida xabarlar qabul qilinishi yo‘lga qo‘yilgan.

Jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish, monopoliyaga qarshi komplayens tizimini samarali tashkil etish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va Jamiyat ishchi-xodimlari ishtirokida davra suhbatlari, brifinglar hamda seminarlar o‘tkazildi.

Komplayens xizmati tomonidan Jamiyatning ishchi-xodimlariga O‘zbekiston Respublikasining **“Raqobat to‘g‘risida”gi** Qonunning mazmun mohiyatini tushuntirish maqsadida 2026-yil 1-yarim yillik davomida **62 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **4 607 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta‘minlandi.

Xususan, Jamiyatning “Qizilqum” kon boshqarmasi va “Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasi buxgalteriya, moddiy-texnik ta‘minot, marketing, sotish va shartnomalarni ta‘minlash bo‘limlarining xodimlari o‘rtasida Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalarni bartaraf qilish yuzasidan seminarlar o‘tkazildi.

Mazkur seminarlar to‘g‘risidagi axborot va ma‘lumotlar Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy veb saytiga joylashtirildi.

Targ‘ibot tadbirlari Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqini himoya

qilish qo‘mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste’molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalar asosida tashkil etildi.

Bundan tashqari, Komplayens xizmati monopoliyaga qarshi ma’sullari tomonidan Jamiyat xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish yuzasidan o‘tkazilgan o‘quv seminar natijalari bo‘yicha 2026-yilning fevral oyida “NMZ” IChBning **27 nafar**, mart oyida “Qizilqum” kon boshqarmasining **28 nafar**, aprel oyida Janubiy kon boshqarmasining **29 nafar**, may oyida Markaziy kon boshqarmasining **27 nafar** va iyun oyida Shimoliy kon boshqarmasining **13 nafar** buxgalteriya va moddiy-texnik ta’minot bo‘limi xodimlariga O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunchiligi o‘tkazildi.

“NKMK” AJning 2024-yil 2-iyuldagi 418-son buyrug‘iga asosan jamiyat faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida Komplayens xizmati (raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari ijrosi yuzasidan) bilan majburiy tartibda kelishish belgilangan.

Komplayens xizmati tomonidan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini huquqiy va raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari hamda korrupsiyaviy ekspertizadan o‘tkazish tartibi joriy etilgan. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha jami **3 629 ta** (*3 123 ta buyruq va 506 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar ekspertizadan o‘tkazildi. Ekspertiza natijasida **134 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Jamiyatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo‘linmalarida 2025-yilning noyabr-dekabr oylarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash hamda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi mumkin bo‘lgan sohalaridagi xavflar o‘rganildi. Buning natijasida, **1 400 ta** funksiyalar baholanib, shundan **2 ta** “yuqori”, **34 ta** “o‘rta” va **1 364 ta** “past” darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2026-yil 4-martda **29 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi va **10 ta** bandning ijrosi to‘liq ta’minlandi.

2026-yil 1-yarim yillik davomida Jamiyatda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va amalga oshirilgan ishlar haqida Komplayens xizmati faoliyati yuzasidan **5** marotaba ommaviy axborot vositalari va jamiyatning rasmiy veb-sayti orqali chiqishlar amalga oshirildi.

Xususan, Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida **2026-yilning 17-fevral** kuni “NKMK” AJ Markaziy apparati binosida **brifing** hamda **12-mart kuni** Navoiy shahridagi “Farxod” madaniyat saroyining kichik majlislar zalida **matbuot anjumani** o‘tkazildi. Mazkur tadbirlar ommaviy axborot vositalarida,

jamiyatning rasmiy veb-saytida hamda telegramm kanallarida yoritildi.

“NKMK” AJ faoliyatida Komplayens xizmati ma’sullari tomonidan kelgusida Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rilishi ma’lum qilinadi.

Komplayens xizmati boshlig‘i



R.F.Avezov